

O‘QUV-BILISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OLIY  
TA’LIMNING MUHIM SHARTI SIFATIDA

*Raximov Zokir Toshtemirovich*  
*pedagogika fanlari doktori, professor,*  
*Turon Fanlar Akademiyasi akademigi,*  
*Renessans ta’lim universiteti professori,*  
*E-mail: [raximovzokir@mail.ru](mailto:raximovzokir@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashda talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish oliy ta’limning muhim sharti ekanligi ta’lim jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish, ta’lim innovatsiyalaridan keng foydalanish masalalari talqin qilingan.

**Kalit so‘zlar:** bilish, ta’lim, talaba, natija, sifat, shart, sharoit, e’tibor, samara, zaruriyat, rivojlanish.

**Аннотация.** Толковались вопросы внедрения в образовательный процесс кредитно-модульной системы, широкого использования образовательных инноваций, что развитие учебно-познавательной компетентности учащихся является важным условием высшего образования при подготовке будущих педагогов в высшем образовании.

**Ключевые слова:** знание, образование, ученик, результат, качество, условие, внимание, эффект, необходимость, развитие.

**Annotation.** The fact that the development of educational and cognitive competence of students in the training of future teachers in higher education is an important condition for Higher Education has been interpreted as the introduction of a credit-modular system to the educational process, the widespread use of educational innovations.

**Key words:** knowledge, education, student, result, quality, condition, circumstances, attention, effect, necessity, development.

Respublikamizda so‘nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish, ta’lim innovatsiyalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ta’lim tizimi rivojlanishi uchun yangi innovatsion g‘oyalar, takliflar va tashabbuslar bilan oldinga chiqib, ularni qo‘llashga qodir bo‘lgan, kasbiy bilimlarga ega, salohiyati yuksak raqobatbardosh kadrlarini tayyorlash, oliy ta’lim bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish masalalari dolzarb vazifalar

sifatida belgilab olingan. Ayniqsa, ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, shu jumladan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishning metodik tizimi hamda shart-sharoitlarini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda malakali kadrlar yetishtirish, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali ta'lim tizimini tubdan isloh qilish zarur sanaladi. Shunga ko'ra, ta'lim tizimini modernizatsiyalash, oliy ta'lim tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zaruriyat tug'diradi. Hozirgi vaqtda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari joriy etilib, bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim innovatsiyalari keng joriy etilmoqda. Respublikamiz ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelishi keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo'lga qo'yish shuningdek, oliy ta'limning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan sanaladi.

O'quv-bilish kompetentligi, bu talabaning o'rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O'rganilayotgan obyektlarga nisbatan talabalarni kreativ ko'nikmalari, ya'ni bilimlarni bevosita borlikdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

O'qituvchi malakali o'qituvchi bo'lish uchun muayyan pedagogik kompetentlikga ega bo'lishi kerak, "kompetensiya - bu ta'lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir" [1] Kompetensiya va ko'nikma o'rtasida farq bo'lib, ko'nikma - bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya - hatti-harakatlar, ko'nikmalarning kuzatuvlaridan o'rganilishi mumkin bo'lgan xarakteristik xususiyatdir. Kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari [3, 4, 5, 6, 7, 8]:

Birinchi, bilim, nafaqat ma'lumot, balki tez o'zgarib turadigan, dinamik, o'zgaruvchan, o'zingizning tajribangiz asosida topishingiz kerak bo'lgan axborot.

Ikkinchi, ma'lum bir vaziyatda ushbu bilimlardan foydalanish ko'nikmasi; ushbu bilimlarni qanday qilib olishni tushunish.

Uchinchi, adekvat (tegishli) baholash - o'zlari, dunyosi, ularning dunyodagi

oʻrni, ularning oʻziga xos bilimlari, oʻz faoliyatlari uchun zaruriyati yoki foydasizligi, shuningdek, ularni olish yoki ulardan foydalanish usuli. Ushbu formulani mantiqiy ravishda quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

Oʻquv-bilish kompetentligi - deganda, talabalarning oʻziga zarur boʻlgan bilimlarni mustaqil oʻzlashtirish, mustaqil taʼlim olish faoliyatiga tayyorligi, oʻz-oʻzini rivojlantirish orqali kasbiy rivojlanish maqsadiga erishish tushuniladi [9].

Oʻquv-bilish kompetentligi mazkur tarkibiy komponentlar asosida rivojlanadi [10, 11, 12, 13]:

motivatsion komponent – talabalarning oʻz oʻquv ehtiyojlari, maqsadlari va faoliyat mazmuni va natijasi haqidagi tasavvurlarini anglashni oʻz ichiga oladi; oʻquv faoliyatiga faol qoʻshilishga, yangi narsalarni oʻrganishga yoʻnaltirish; kompetentlikni namoyon etishga ijobiy turtki beradi;

kognitiv komponent – bilish faoliyatining vositalari va natijalarini tahlil qilishni taʼminlaydi uning shakllanishining barcha bosqichlarida tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyati talab qilinishini koʻrsatadi;

faoliyat komponenti – bilish vazifalarini, umumiy ilmiy va xususiy-subyekt bilish faoliyati usullarini, umumiy taʼlim koʻnikmalarini mustaqil hal etishga tayyorlik; talabalarning oʻquv-bilish faoliyatini maqsadga muvofiq belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish, oʻz-oʻzini baholash koʻnikmalarini egallashlari;

kreativ komponent – talabalarning ishlab chiqarish faoliyati ijodiy koʻnikmalariga egaligi, voqelikdan bevosita bilim olish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda harakat usullariga egaligi, muammolarni yechishning turli usullarini oʻz ichiga oladi, yaʼni tadqiqot koʻnikmalaridan foydalanish bilan bogʻliq bilish vazifalarini mustaqil hal qilishga tayyorligini ifodalaydi.

Talabalar oʻquv-bilish kompetentligining eng muhim sifatlari mustaqillik, bilish faoliyati, oʻquv jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf qilishga tayyorlik va vazifa boʻyicha qaror qabul qilishda samaradorlik hisoblanadi. Mustaqillik darajasining oshishi talabaning oʻz faoliyatining motivlari, maqsadlari, usullarini anglashiga va talabaning pedagogik taʼsir obyektidan oʻz faoliyatining subyektiga aylanishiga yordam beradi. Bu sifatlarni shakllantirish talabalarning oʻquv-bilish faoliyati natijasida yuzaga keladi, shu sababli talabalarning oʻquv-bilish faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyatga ega sanaladi [14].

Oʻquv-bilish kompetentligi kasbiy va maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini taʼminlaydi, bu uning rivojlanishini zamonaviy taʼlimning ustuvor vazifasi deb hisoblash imkonini beradi. Oʻquv-bilish kompetentligi insonning har tomonlama va xilma-xil madaniyat olamini egallashini taʼminlaydigan shaxsning kompetensiyalarining maʼlum qismida ustuvor oʻrinni egallaydi [15].

Oʻquv-bilish kompetentlikni takomillashtirish mezonlari sifatida quyidagi koʻnikmalarga ega boʻlish hisoblanadi [16]:

- maqsad qo'yish va uning imkoniyatlarini tashkil etish, o'z maqsadini tushuntirish ko'nikmasi;
- bilish vazifalarini shakllantirish va farazlarni kiritish;
- o'zining o'quv-bilish faoliyatini tahlil qilish;
- mustaqil ravishda bilimlar olish;
- o'z o'quv-bilish faoliyatida refleksiya (aks ta'sir)ni amalga oshirish;
- o'zlarining o'quv-bilish faoliyatida o'zi-o'ziga baho berish;
- o'z tadqiqotlarining natijalarini og'zaki va yozma ravishda taqdim etish.

O'quv-bilish kompetensiyalari yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular zarurat tug'lsa, mutaxassisligi va kasbiy faoliyati doirasini o'zgartirishi mumkin bo'lgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy harakatini ta'minlaydi. Shunday qilib, o'quv-bilish kompetensiyalari – ijtimoiy raqobatbardoshlik omilidir. O'quv-bilish faoliyat turlarini shakllantirish va rivojlantirish tashqi boshqaruvdan o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini tashkil qilishga o'tish bosqichida sodir bo'ladi. O'quv jarayonida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyati ortadi va o'qituvchining bilimlarni uzatish ehtiyoji keskin kamayadi.

Ushbu muammoni hal etishning istiqbolli usullaridan biri ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, ijodiy qobiliyatga va ijodiy-bilish faolligiga yo'naltirilgan muammoli-ishbilarmon va rolli o'yinlar hisoblanadi. O'yinlar talabalarning bilish faolliigi, tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyati, oqilona va mas'uliyatli muhokamalar, muloqot malakalarini rivojlantirish va o'zlarning pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmasini rag'batlantiradi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida bo'lajak o'qituvchiga bilimga bo'lgan motivatsion va qadriyat munosabatini, mavzuga bo'lgan ishtiyoqini yuzaga keltira olishi kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy malakaga ega bo'lishi kerak, shuningdek, o'qitiladigan sohasidagi maxsus bilim va ko'nikmalar, o'z sohasida chuqur bilim va keng bilim berish, nostandart fikrlash, innovatsion taktika va strategiyani egallash, ijodiy muammolarni hal qilish usullari; psixologik, pedagogik, kommunikativ va ijtimoiy-tashkiliy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishlari talab qilinadi [17].

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetentligini samarali rivojlantirish muayyan tartibda pedagogik shart-sharoitlar mavjudligini taqozo etadi. Mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish va oliy ta'limning tashkil etilish jarayonini kuzatish natijasida quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega ekanligi belgilab olindi:

huquqiy-me'yoriy ta'minot – umumiy va kasbiy fanlar uchun ajratilgan o'quv

soatlari, o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi, va barcha o'quv-me'yoriy hujjatlar;

ilmiy-pedagogik ta'minot – malakali, yetakchi professor-o'qituvchilar, o'z sohasini chuqur biladigan metodistlar, mas'uliyatli texnik xodimlar;

metodik-texnik ta'minot – didaktik vositalar majmuasi (ma'ruza matnlari, taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, ish qog'ozlari, o'quv topshiriqlari, amaliy ko'rsatmalar, nazorat-sinov savollari, jihozlar);

axborot – dasturiy ta'minot – ta'lim jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar (internet tarmog'iga ulangan zamonaviy kompyuterlar) modul platformasi, zoom drayverlari, elektron darslik mobil ilovalari, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy majmualar dasturlari, videomateriallar.

Oliy ta'lim talabalari uchun kasbiy faoliyat uchun maxsus kompetensiyalar zarur bo'lib, ular talabalarning pedagogik, ilmiy va ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv ko'nikmalarini shakllantiradi. Talabalarning o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish uchun asta-sekin uning motivatsion, kognitiv, faoliyat va kreativ-ijodiy komponentlari shakllantiriladi [18].

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy shakllanishi jarayonining mohiyatini o'rganishda quyidagi g'oyalarning ustuvorligini ta'kidlab o'tish joiz:

a) ta'lim va tarbiyaning genetik, boshlang'ich asosi texnika va pedagogika, shuningdek, texnik va pedagogik bilimlar o'rtasidagi yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi;

b) bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi genetik mohiyatini tushuntirishning eng samarali metodologik vositasi ta'lim va tarbiyaning kelib chiqishiga nisbatan madaniy-genetik yondashuv sanaladi [2].

Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichida biologik evolyutsiyaning mohiyati o'zgarib, ijtimoiy faoliyat yuzaga kela boshladi. Muhim hayotiy faoliyatlarning yangi turlari paydo bo'la boshladiki, oqibatda mavjud bilimlarni biologik yo'l bilan avlodlarga uzatish mumkin bo'lmay qoldi. Bu borada yangi mexanizmga ega bo'lish ehtiyoji tug'ildi. Mazkur ehtiyoj yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yish asosida qondirila boshlandi. Biroq ijtimoiy-genetik konsepsiya shaxs tarbiyasi xususiyatlarini yetarli darajada tushuntirib bera olmaydi.

Shaxsning madaniy-tarixiy konsepsiyasi mohiyati N.F.Talizina tomonidan ilgari surilgan quyidagi fikrda o'z ifodasini topgan [20]: “Zamonaviy (madaniyatli) kishining xulqi faqat bolalik davridagi rivojlanishning natijasi bo'lib qolmay, balki tarixiy taraqqiyotning mahsuli hamdir. Tarixiy jarayonida insoniyat taraqqiyoti nafaqat ijtimoiy, shuningdek, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar jihatdan o'zgarib va rivojlanib qolmay, balki insonning o'zi ham, uning tabiati ham o'zgaradi va rivojlanadi”.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganlarni sarhisob qiladigan bo'lsak, kasb-hunar ta'limi tizimini modernizatsiyalash mamlakatning innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish,

O‘zbekiston ta’lim tizimi jahon ta’lim xizmatlari bozorida pozitsiyasini mustahkamlash, talabalarni tayyorlash sifatini oshirishda yangi yondashuvlarni izlash, uzluksiz ta’lim tizimini yaratish zarurligi bilan bog‘liq.

Yangi turdagi sivilizatsiyaga, mutaxassislarining intellektual salohiyatiga yuqori talablarni qo‘yadigan axborot jamiyatiga o‘tish ta’lim tizimida, uning texnologiyalari va ta’lim uslublarini o‘zgartirishga, xususan, ta’lim muammolarini hal qilishda faoliyatli yondashuvga yo‘naltirilgan. Shunday qilib, innovatsion pedagogik ta’limning rivojlanishi bo‘lajak bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat texnika va texnologiyalar sohasidagi aniq bilim va ko‘nikmalarni egallash, balki ularni amalda qo‘llash qobiliyatiga qaratilgan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilari mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida pedagogik faoliyatga ilmiy va ijodiy munosabatni shakllantirish, kasbiy kompetensiyalar asosida zamonaviy fikrlashni shakllantirish muhimdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Daminov M.I. Fizika ta’limida modulli o‘qitish texnologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Buxoro, 2006. -56 b.
2. Muslimov N.A. Quliyeva Sh.H. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli yondashuvni amalga oshirishga muammoli vaziyatlar. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. – 54 b.
3. Raximov Z.T. Ta’lim jarayonida talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish. “Zamonaviy ta’lim” jurnali 2020 yil № 3-son, 3-10-b.
4. Raximov Z.T. Innovatsion yondashuv professional ta’lim tizimi rivojlanishining muhim omili sifatida // Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2021. – № 4. – 8-14 b.
5. Raximov Z.T. Oliy kasbiy ta’limda talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish omillari // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnal. – Toshkent, 2021. – № 8. – 4-11 b.
6. Raximov Z.T. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining samarali imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati // Xalq ta’limi. Ilmiy-metodik jurnal. – Toshkent, 2021. – № 6. – 93-96 b.
7. Raximov Z.T. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish kasb ta’limi jarayonining muhim vazifasi sifatida // Kasb-hunar ta’limi, Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. – Toshkent, 2021. – № 3. – 48-54 b.
8. Raximov Z.T. Oliy ta’limda modulli ta’lim texnologiyasini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari // Zamonaviy ta’lim. Ilmiy-amaliy ommabop jurnal. – Toshkent, 2021. – № 10 (106). – 3-11 b.
9. Raximov Z.T. O‘quv-bilish kompetentligi kasb ta’limining tayanch kompetensiyasi sifatida // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – Toshkent, 2021. – № 6. – 58-70 b.
10. Rakhimov Z.T. Development of students’ learning-knowing competence in vocational education // “Current research journal of pedagogics” – 2021. – Vol-11. P. 233-240.<http://masterjournals.com/index.php/crjp/issue/view/35>

11. Rakhimov Z.T. Personality-oriented educational technology as a factor in achieving educational effectiveness // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) – Vol 10, Issue 10, October, – 2021. – P. 920-929. <https://tarj.in/images/download/ajmr/AJMR-OCTOBER-2021-FULL-JOURNAL.pdf>
12. Rakhimov Z.T. The importance of biological and psychophysiological factors in the development of educational and cognitive activities // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – Vol. 11, Issue 10, October – 2021. – P. 1614-1623 <https://saarj.com/wp-content/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULL-PDF/ACADEMICIA-OCTOBER-2021/10.241,%20Zokir%20Toshtemirovich%20Rakhimov.pdf>
13. Рахимов З.Т. Развитие учебно-познавательной компетентности студентов технических вузов // Среднее профессиональное образование. Ежемесячный теоретический и научно-методический журнал. – Москва, 2021. – № 11. – С.140-153.
14. Рахимов З.Т. Факторы развития учебно-познавательной деятельности // Наука и образование сегодня. Научно-теоретический журнал. – Москва, 2021. – № 9 (68). – С. 43-49.
15. Рахимов З.Т. Роль педагогического мастерства и инновационных технологий в повышении эффективности образования // Вестник науки и образования. Научно-методический журнал – Москва, 2021. – № 6(109). Часть 3. – С. 50-55.
16. Rakhimov Z.T. Innovative educational technologies as a factor of modernization of higher education // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research a collection scientific works of the International scientific conference – Copenhagen: 2021. – P. 104-112.
17. Rakhimov Z.T. The need for the use of problem-solving educational technologies professionally oriented // Материалы Международной научно-практической интернет-конференции «Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации»: Сб. науч. трудов. – Переяслав, 2021. Вып. 76. – С.193-198.
18. Rakhimov Z.T. Development of creative competence of an educational educator // Международного научно-методического журнала «Global science and innovations 2021: central asia» – Нур-султан, 2021. – С. 45-48.
19. Rakhimov Z.T. The use of educational innovation as a necessary factor in the training of future teachers // Science and education in the modern world: challenges of the XXI century материалы VIII Международной науч-прак. конф. (Педагогические науки) – Нур-Султан, 2021 – С. 48-52.
20. Талызина, N.F. Управление процессом усвоения знаний. Психологические основы / N.F. Талызина. - М.: МГУ, 1984. - 344 с.